

O'zbekiston Fanlar akademiyasi faoliyati: so'nggi yillardagi islohotlar

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mamlakatning fan, texnika, madaniyat va ma'rifat sohasida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi yetakchi davlat ilmiy muassasasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-son qarori bilan Fanlar akademiyasi faoliyati tubdan takomillashtirildi.

Davlatimiz tomonidan ilm-fanni rivojlantirish, olimlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, ilmiy ishlanmalar natijalarini amaliyotga joriy qilish borasida misli ko'rinmagan islohotlar olib borildi va aytish joiz bo'lsa, o'zbek ilm-fanida yangi bosqichga qadam qo'yildi.

Xususan, so'nggi to'rt yil ichida Fanlar akademiyasi faoliyatiga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Hukumatining bir qancha farmoni hamda qarorlari qabul qilindi. Fanlar akademiyasi tuzilmasi takomillashtirilib, uni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi, bir nechta ilmiy-tadqiqot muassasalari qaytadan tiklandi va yangi tashkil etildi.

Bugungi kunda Fanlar akademiyasi tizimida 34 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi bo'lib, ularda 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami 4 966 nafar, ilmiy xodimlar - 2 247 nafar, akademiklar 76 nafar (ulardan 28 nafari Fanlar akademiyasi tizimida), 428 nafar fan doktorlari va 797 nafar fan nomzodi hamda falsafa doktorlari samarali faoliyat ko'rsatmoqda (2020-yilda 127 ta - 99 ta PhD, 28 ta DSs doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan).

Hozirda tizimda 438 nafar doktorant, jumladan, 383 nafar tayanch doktorant (PhD) va 55 nafar doktorant (DSs) mavjud. 2020-yil yakunlari bo'yicha 124 nafari (111 ta PhD, 13 ta DSs) doktoranturani bitirgan, shundan 59 nafari (53 ta PhD, 6 ta DSs) muddatida himoya qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 1-noyabrdagi "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3365-son qarori asosida Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalari bosqichma-bosqich ta'mirlanmoqda va moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2018 - 2020-yillarda Fanlar akademiyasi tasarrufidagi 17 ta ilmiy-tadqiqot muassasalari binolarida qurilish ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. 2021-yilda yana 11 ta ilmiy-tadqiqot muassasalari binolarida qurilish ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan. Hozirda Bioorganik kimyo hamda Umumiy va noorganik kimyo institutlarida ta'mirlash ishlari yakunlandi.

Xususan, Davlatimiz Rahbari rahnamoligida Yadro fizikasi instituti Fanlar akademiyasi tizimida qayta tiklangandan so'ng Institutda ilmiy tadqiqotlarni olib borishga keng sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 292-son qarori bilan Institutning tashkiliy tuzilmasi va tadqiqot yo'nalishlari belgilab berildi. Ushbu qarorlar doirasida Institutda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash va olingan natijalarni iqtisodiyotimiz sohalariga tadbir etishga katta e'tibor qaratildi.

Jumladan, 2018-yilda Davlatimiz Rahbarining farmoyishi asosida tadqiqot yadro reaktori uchun yadro yoqilg'isi sotib olinib tadqiqot reaktorining 5-6 yil mobaynida uzluksiz faoliyati ta'minlandi.

2019-2020-yillarda 3 ta eng zamonaviy yirik qurilma - Rentgen difraktometri, Atom-kuchli elektron

mikroskop va DLTS spektrometri davlat xaridlari tizimi orqali sotib olindi. Shuningdek, 2020-yilda Vazirlar Mahkamasining bevosita yordamida qisqa muddatda Elektron tezlatgich uchun "Magnetron" qurilmasi sotib olindi. Bu esa og'ir pandemiya davrida respublikamiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan tibbiyot buyumlarining uzluksiz zararsizlantirilishini (sterilizatsiya) ta'minladi. O'tgan 3-4 yil mobaynida Institutning bir qator bino va inshootlarida ta'mirlash ishlari bajarildi.

Bundan tashqari, Davlatimiz Rahbari va Hukumatimizning ilm-fanga berayotgan yordam va g'amxo'rligi tufayli Fanlar akademiyasiga ilmiy ishlar samaradorlini oshirish, jahon andozalariga mos ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun Davlat xaridlari tizimi orqali kerakli laboratoriya jihozlari sotib olingan va bu ishlar tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-son qarori asosida o'rnatilgan tartib bo'yicha va tizimli ravishda amalga oshirilayotgan zamonaviy asbob-uskunalar, butlovchi qismlar va laboratoriya jihozlarini sotib olish choralari ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ta'diklash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrdagi "Yadro fizikasi instituti ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4526-son qarori Institutda bajarilayotgan tadqiqotlar natijadorligini oshirish va kelgusida Institutning ilmiy-texnikaviy faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab berdi. Ayniqsa, ushbu qarorga asosan Institut faoliyatining to'g'ridan to'g'ri davlat byudjetidan moliyalashtirishga o'tishi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochib berdi.

Fanlar akademiyasi tizimidagi tashkilotlar 2020-yildan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Bu esa o'z navbatida, olimlarimizning faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Jumladan, noyob obyektlar, qurilma va inshootlarni saqlash, asbob-uskuna va materiallar uchun mablag'lar o'z vaqtida to'liq ajratib berilmoqda.

Mamlakatimizda ilm-fan sohasiga berilayotgan e'tibor samarasi natijasida Fanlar akademiyasi olimlari 2020-yilda quyidagilarga erishdilar:

Biologik namunalardan virus RNKsini ajratib olish to'plami va qon kasalliklarni aniqlash PZR diagnostikumi yaratildi.



Yadro fizikasi institutida birinchi marta Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan neytron difraktsiyasi va neytron tomografiyasi qurilmalari yaratilib ishga tushirildi, saraton kasalligini davolash uchun yangi lyutetsiy 177 radioizotop mahsulotini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.



Birinchi marotaba O'rta Osiyo uzum seleksiyasining 203 ta navlarini birlamchi genetik pasportlari tuzildi.

Suv va gidroenergetika inshootlarining seysmik holatini baholash bo'yicha ekspres uslubiyoti ishlab chiqildi.

O'zbekistonning sharqiy va markaziy qismining faol yer yoriqlari morfologiyalariga va maydon uzra joylashuviga yangilangan xaritalari tuzildi va hududlarning seysmotektonik modellari ishlab chiqildi.

Xususan, Yadro fizikasi instituti Tadqiqot yadro reaktori asosida olingan tibbiyotda qo'llaniladigan radioizotop mahsulotlar respublikamiz klinikalarining talabini to'liq qondirish bilan birga dunyoning 10 ortiq mamlakatlariga eksportini ta'minladi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida ishlab chiqarilayotgan Kobalt-57 radioizotopining 20 %ga yaqini FA Yadro fizikasi instituti qoshidagi Siklotron asosida ishlab chiqariladi va eksport qilinadi hamda shu yillar mobaynida respublikamiz korxon va tashkilotlariga sifatli mahsulot va maxsus xizmatlar yetkazib berildi. Bularning barchasi Institutda o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ularni tijoratlashtirish yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlar hamda davlatimiz tomonidan ilm-fanga va olimlarga qaratilayotgan e'tibor samarasidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilmiy faoliyatni taraqqiy toptirishdan ko'zlangan maqsad, eng avvalo, har bir mamlakatda iqtisodiy, siyosiy va strategik barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Shunday ekan, Yurtboshimiz tomonidan ilm-fan sohasida olib borilayotgan siyosatni qo'llab-quvvatlagan holda, barcha imkoniyatlarni ishga solib, mamlakat qudratini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi ilmiy-tadqiqot natijalarini taqdim etish Fanlar akademiyasining eng muhim vazifasidir.

Fanlar akademiyasi
Axborot xizmati.